

*Saida Beknazarova,*

*t.f.d., doisent*

*Azizbek Mahmudjonov,*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*TATU qoshidagi akademik litsey*

*o'quvchisi*

# RAQAMLI DIPLOMATIYA axborotlarni operativ taqdim qilinishi mexanizmi sifatida

**M**a'lumki, ekspertlar tomonidan Silikon vodiylar «diplomatiya Veb 2.0» deb nomlangan raqamli diplomatiya paydo bo'lganiga uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q.

Bu hodisaning soddaroq ta'rif — diplomatik vazifalarni amalga oshirish uchun veb va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash — u haqida to'laqonli tasavvur hosil qiladi. Raqamli diplomatiyaning bir necha asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda raqamli diplomatiya tashqi siyosiy idoraning resursi sifatida, ayniqsa, samarali bo'lib hisoblanadi.

Birinchi navbatda, bu ommaviy diplomatiyani amalga oshirish:

- onlayn-auditoriya bilan aloqa o'rnatishda va kommunikatsiyaning yangi instrumentlarini shakllantirishda raqamli diplomatiya maqsadli auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish;
- shuningdek, nufuzli opinion-meykerlarni hamkorlikka chaqirish imkonini beradi.

Elektron diplomatiya «fuqaro-fuqaro, inson-inson» formatidagi dialogni yo'lga qo'yishga xayrixohlik bildiradi. Bu dialog ham fuqarolik jamiyati qatnashchilari, ham dialog moderatori funksiyasini bajaruvchi davlat tomonidan olib borilishi mumkin.

Raqamli diplomatiya asosan amaliy xarakterga ega, ayniqsa, rasmiy pozitsiyani translyatsiya qilish hamda davlat imijini shakllantirish masalalari bo'yicha chet el auditoriyasi bilan ishlashda foydali bo'lib hisoblanadi.

Axborotni boshqarish, to'plangan bilim va tajriba sohasida:

- Katta hajmdagi axborotni akkumulyatsiyalash va tahlil qilish, bu siyosiy prognozlar va strategik rejalashtirishda muvaffaqiyat bilan qo'llanishi mumkin.
- Davlatning tashqi siyosiy tuzilmasidagi turli idoralarning to'plagan tajriba va axborotlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli yer kurrasining turli nuqtalarida, manbaning va iste'molchining qayerdaligidan qat'iy nazar, muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Konsullik faoliyatini amalga oshirishda:

- Viza hujjatlarini qayta ishlash va tayyorlash, chet eldagi fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqadan iborat.

Favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar paydo bo'lgan hollarda:

- chet eldagi davlat elchixonasi bilan shoshilinch aloqani amalga oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga molik bo'ladi.

Ko'rib chiqilgan yo'nalishlarga muvofiq, raqamli diplomatiya asosan amaliy xarakterga ega bo'lib, rasmiy pozitsiyani translyatsiya qilish hamda davlat imijini shakllantirish masalalari bo'yicha chet el auditoriyasi bilan ishlashda samarali ekanligini ko'rsatmoqda.

Shuni tushunish kerakki, raqamli diplomatiya an'anaviy ma'nodagi diplomatiyaning o'rnini hech qachon bosa olmaydi. Yopiq kelishuvlar yopiqligicha qoladi, biroq u yoki bu yechim nima uchun qabul qilinganligini, u qanday natijalarga olib kelishi, tashqi siyosiy jarayonga qanday ta'sir ko'rsatishi, ya'ni an'anaviy diplomatiya faoliyati natijalarini keng jamoatchilikning bilishi mumkinligini raqamli diplomatiya tushuntirib bera oladi.

Ochiqlik — bu davlat uchun majburiy holat bo'lib, u axborot makonida boshqa axborot manbalari bilan barobar ishlaydi. Agar bu makonni obyektiv axborot bilan to'ldirilmasa, uni boshqalar to'ldiradi.

Diplomatiyadagi ochiqlik tamoyillari haqida 1918-yildayoq AQSh prezidenti Vudro Vilson aytib o'tgan edi. Tinchlik kelishuvi loyihasining o'n to'rt punktidan birinchisi shunday deyilgan: «ochiq muhokama qilinadigan ochiq tinchlik shartnomalari bu kelishuvlarni turlicha talqin qilishlariga imkon bermaydi, diplomatiya har doim jamoatchilik ko'zi oldida ochiq ish olib boradi».

U paytda ochiqlik tamoyili davr talabi edi — Yevropa davlatlari siyosiy hayotiga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi jamoatchilik fikri, diplomatik munosabatlar odatda o'rganib qolingani maxfiylikka salbiy munosabatda bo'lganlar.

Hozirda ochiqlik — bu davlat uchun majburiy zarurat, u axborot makonida boshqa axborot manbalari bilan tengma-teng ishlaydi. Agar bu makonni obyektiv axborot bilan to'ldirilmasa, uni boshqalar to'ldiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli diplomatiya adekvat axborotlarni operativ taqdim qilishi, noto'g'ri ma'lumotlarni rad etishi, rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlarni tasdiqlashi lozim. Shunda raqamli diplomatiya axborotlarni operativ va ochiq taqdim qilinishi mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. 